

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

# Tong Yulduzi

2013-yil 14-oktabr  
N:41 (66946)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

## BARKAMOL AVLOD - YOSHLARGA QANOT



Darhaqiqat, har tomonlama yetuk avlodni kamolga yetkazish, yoshlarga o'z iqtidorlarini namoyon etishlari, mustaqil faoliyat olib borishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularni kasbga yo'naltirish, qolaversa, darslardan bo'sh vaqlarini mazmunli tashkilashtirish maqsadida faoliyat yuritayotgan «Barkamol avlod» markazlari yoshamizga zo'r qanot bo'lyapti, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ayni kunlarda iste'dodlarni kashf etuvchi ana shu maskanlarda «Ochiq eshiklar kuni» tadbirlari bo'lib o'tmoqda.

Gazetamizning 2-sahifasida Toshkent shahar «Barkamol avlod» bolalar markazida o'tkazilgan ana shunday tadbir haqida o'qiyisz.



Ushbu sonda:

DILDA KURTAK  
YOZGAN SATRLAR

5-bet

LOFNI DO'NDIRGAN  
CHO'PON

6-bet

CHEMPTIONLAR  
MASKANI

7-bet



## JANNATDAN BIR CHINDIM JOY – ANDIJONIM

*Andijon! Ona yurtim, ota makonim! Bugun ushbu viloyatning qay bir go'shasida bo'lmang, u yerdagi obodlikni ko'rib, buniyodkorlik ishlariga guvoh bo'lib, ko'zingiz quonaydi.*



Keng, yorug' va ravon ko'chalar, osmono'par binolar, ko'rkam mahallalar, saramjon-u sarishta xonadonlar...

Istiqlol yillarda viloyatimiz o'ziga xos va mos yangicha qiyofa kasb etdi. Har yili Mustaqillik bayramiga munosib sovg'a tariqasida yangi-yangi inshootlar, ko'cha va xiyobonlarning foydalanishga topshirilishi yaxshi an'aga aylandi. Ana shu an'anaga sodiq qolgan holda bu yil ham «Milliy tiklanish» va «Istiqlol» deya nom olgan ko'chalar qurilib, foydalanishga topshirildi.

Andijonliklarning yurtimizni yanada obod qilishga astoydil bel bog'laganlar. Bu so'lim go'shaga yo'lingiz tushsa, uning ko'rku jamoliga o'zingiz guvoh bo'lasiz.

*Isfandiyor HUSANZODA*

# BARKAMOL AVLOD - YOSHLARGA QANOT

*Bilasizmi, bolajonlar, ushbu suratlardagi bejirim o'qinchog'-u munchoqli bezaklar siz singari o'quvchilar qo'li bilan yasalgan. Bunday chiroqli buyumlarni yasash sizning ham qo'lingizdan keladi, albatta. Faqat buning uchun bo'sh vaqtningizda birorta to'garakka qatnasangiz, bas. Qayerda shunday to'garaklar bor, deysizmi, unda eshititing:*

Kuni kecha Toshkent shahar «Barkamol avlod» bolalar markazida poytaxt umumta'l'm maktablarini o'quvchilar uchun «Iqtidorli va iste'dodli barkamol avlod» shiori ostida «Ochiq eshilklar kuni» bo'lib o'tdi. Tadbirda markazda faoliyat yuritayotgan barcha to'garaklar taqdimoti o'tkazildi.

Markazda texnik ijodkorlik yo'nalihsida avtomodel, aviamodel, avtomatika va elektronika yo'nalihsida radiotexnika, elektronika va aloqa, robototexnika va elektron o'yincholar, texnik vositalar va kompyuter texnologiyalari yo'nalihsida kompyuter dizayni va grafikasi singari bir nechta yo'nalihsida faoliyat yuritayotgan to'garaklarga 6 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar jahb qilingan.

Mustaqillik yillarda o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini mazmuni o'tkazish maqsadida tashkil etilgan mazkur markaz ularning eng sevimli maskaniga aylandi.

Umumta'l'm maktablarini bilan uzviy hamkorlik qilayotgan markaz o'qituvchilarini o'z malakalarini muntazam ravishda oshirib borishadi.



to'garagiga qatnaymiz, – deydi Mirzo Ulug'bek tumanidagi 18-maktab o'quvchisi Samira Nabiyeva hamda Yunusobod tumanidagi 51-maktabning 3-«A» sinf o'quvchisi Nozima Obidova.

– To'garagimiz rahbari Nigora Nabiyevna bizga turli xalqlar raqslarini o'rgataytilar.

– Men Mirzo Ulug'bek tumanidagi 112-maktabning 7-«B»

sinfida o'qiyman, – deydi Laylo Jabborova. – Men liboslar dizayni va ularni modellashtirish to'garagiga a'zo bo'ldim.

Poytaxtimizdagi 17-ixtisoslashtirilgan maktabning 3-sinf o'quvchisi Madina Evodullayeva, mana

## Barkamol o'g'il-qiz – yoshlar sarvari, Kasb-hunar, bilimda dur-u gavhari

*Bolalar-e bolalar, bog'dagi gul-lolalar, yangilikdan xabaringiz bormi? Qanday yangilik, deysizmi? Yaqinda siz aziz o'quvchilar uchun mo'ljallangan yana bir yangi «Zukkolar davrasida» nomli ma'rifiy-intellektual jurnalning nishona soni bosmadan chiqdi.*

## YANGI NASHR: «ZUKKOLAR DAVRASIDA»

Istiqlol sharofati bilan bolalar va o'smirlar uchun chop etiladigan nashrlar soni yana bittaga ko'paydi.

24 sahifada, sifatli qog'ozda, rangli suratlar bilan bezatilgan jurnalning mazmun-mundarijasi niyoyatda boy va rang-barang. Sahifalarni varaqlar ekansiz, «Durdona», «Siz sevgan adib», «O'zbek bolalar abadiyoti», «Javondagi javohir», «Mulohaza», «Iftixor», «Quvnoq she'rlar», «Hikmatlar xazinasi», «Istiqlol chechaklari», «Aql charxi» kabi ruknlar ostida e'lon qilingan materiallar, sevimli adiblarining Xudoyerberdi To'xtaboyev,

Anvar Obidjon, Abdurahmon Akbar bilan uchrashib, sermahsul ijodlaridan bahramand bo'lish o'quvchini o'ziga jalb qiladi... Shuningdek, ingliz tilini o'rganishga qiziquvchilar uchun «Tongda» deb nomlangan dars ishlanmasi, yangi so'zlar lug'ati, «Jahon bolalar adabiyotis» rukni ostida mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoyning «Danak» hikoyosi o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etilgan.



*BONU tayyorladi*

3 yildirki, markazning badiyi to'qish to'garagiga qatnarkan. U to'garak rahbari Nargiza Boltayevadan yana yangi buyumlar to'qish sirlarini qunt bilan

o'rganayotgan ekan.

– Men markazning barcha to'garak xonalarini aylanib chiqdim, – deydi shu maktab o'quvchisi Ra'no Agzamova. – Menga ham liboslar dizayni va ularni modellashtirish to'garagi yodqi hamda unga a'zo bo'ldim.

– Biz markazning «Yosh doirachi» to'garagiga qatnaymiz, – deydi «Zarb» guruh o'quvchilaridan biri Abdurashid O'rmonov. – Men amerikancha «Jambei» zarbi cholg'u asbobini chalishni o'rganyapman.

Guruh a'zolaridan 240-maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi Nuriddin Sunnatullayev, Hamza tumanidagi 204-maktabning 7-«G» sinf o'quvchisi Asomiddin Shamsiddinov, XTV tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'l'm maktabining 7-«F» sinf o'quvchisi Davronbek Hamidullayev ham turli xalqlarning zarbli cholg'u asboblarini chalishni o'rganishmoqda.

Mana, bolajonlar, Toshkent shahar «Barkamol avlod» bolalar markazi qoshidagi to'garaklar faoliyatini bilan tanishdingiz. Bu maskanda o'z iste'dodingizni kashf qilishning mumkin. Agar sizda ham bu to'garaklarga a'zo bo'lishi istagi tug'ilgan bo'lsa, unda shoshiling. Markazning tajribali murabbiylari sizni ochiq chehra bilan kutib olib, bor mahorat-u tajribalarini ishga solib, sizlarga kasb-hunar o'rgatishga shay turishibdi.

*Ozoda TURSUNBOYEVA.  
Zuhra NISHONOVA o'lgan suratlari*

## Bizga maktub yo'llabsiz...

Biz yoshlarning kasb-hunar sirlarini egallashimiz, bo'sh vaqtimizni mazmuni o'tkazishimiz uchun tumanimizdagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi tomonidan ko'plab ibratli ishlar amalga oskirlmoqda.

## TABIATNI ASRAYLIK!

Yaqinda markazda o'quvchilar qalbida ona tabiatga mehr uyg'otish, ularga tabiat ne'matlardan oqilona foydalanish lozimligini uqtirish maqsadida «Ozod yurtimiz tabiatini obod etaylik!» shiori ostida ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi.

Tanlovdan yosh rassomlar, qalamkashlar o'zlarining tabiat mavzusidagi ijod namunalari bilan qatnashdilar. Markaz qoshida tashkil etilgan «Munchoq» raqs guruhu qizlarining xironmlari kechaga yanada jo'shqinlik bag'ishladi.

Tadbir so'ngida hakamlar hay'ati «Eng yaxshi tabiat manzarasi», «Eng yaxshi she'r» nominatsiyalari bo'yicha g'olib o'quvchilarni esdalik sovg'alarini hamda «Faxriy yorliq» bilan taqdirladilar.

Dilshoda MAMADALIYEVA,  
Farg'onan viloyati, O'zbekiston  
tumanidagi 10-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi



## MAS'ULIVATNI OSHIRADI

Munozara uchun mavzu  
Bizi kimdir chetdan kuzatayotganini sezishimiz bilan darkol sergak tortib, o'zimizni nazorat qilishimiz tabiiy hol. Ko'sh, maktab o'quvchilarini kuzatuva kamerali xonalarda taksil olishsa, o'zlarini qanday tutisharkin?!

Namangan viloyati, Pop tumanida joylashgan 25-umumta'lim maktabi yangi o'quv yilida qaytdan rekonstruksiya qilinib, qator qulayliklar yaratildi. Shunday ko'rkam bilim maskanida tahsil olayotgan o'quvchilarning maktab formasi ko'zni quvontirma, ularga ta'limgarbiya berayotgan o'quvchilarning bir xildagi liboslar estetik zavq ulashadi. Ko'rgazmali qurollar, kompyuter bilan jihozlangan, qalin gilamlar to'shalgan sind xonalarda o'quvchilar o'zlarini uylaridagidek his qilishadi.

- 8 ta sinf xonalariiga kameralar o'matilgan, - deydi maktab direktori Mo'tabar Jo'rayeva. - Ularning aynan 8-9-sinf xonalariiga o'matishimizning asosiy sababi, yuqori sinf o'quvchilari orasida darsga kech qolish, darsdan ketib qolish holatlari uchrab turadi. Ularni nazorat qilish orqali o'quvchilarni siquvga olish emas, balki tartibga chaqirishni, dars vaqtida ilm olishdan boshqa mashg'ulotlarga chalg'imasliliklari lozimligini uqtirishni maqsad qilganiz. Kameralarning qulayligi shundaki, bir nechta sinflarni kuzatish orqali o'quvchilar davomati, o'quvchi va o'quvchining darsga munosabatini tahlil qilish mumkin.

Mazkur maktab o'quvchilarining sport sohasida erishayotgan yutuqlari ham talaygina. Yaqinda sportning qo'l to'pi turi bo'yicha viloyatda o'tkazilgan musobaqa da maktab jamoasi 2-o'rinni egalladi.

Maktab davrida olingan puxta bilim kelajak uchun poydevor bo'ladi. Berilgan bilimni vaqtida egallash, uni yanada charxlab borish, poydevor mustahkamligini ta'minlaydi. Bu hayot haqiqatini teran anglagan mazkur ta'lim maskani o'quvchilar fursatni g'animat bilib, puxta bilim olishyapti.

Osiyo JAYLOBOVA

**TAHRIRIYATDAN:** Aziz o'quvchilar, qadrli ustozlar, ota-onalar, faol muxbirimiz Osiyo Jaylobova o'z maqolasida qalamga olgan mavzu nafaqat biz, balki ko'pchililingiz uchun ham yangilik bo'lsa kerak.

Xo'sh, bu xususda sizning fikringiz qanday?  
Bu usul ta'limgarbiya samaradorligini oshiradimi?  
Siz ham o'z ta'limgarbiya qilganda bunday tartibni joriy qilgan bo'larmidizingiz?  
Fikr va mulohazalaringizni kutib qolamiz.



## TABRIKNOMA

(Hikoya)

Ustozlar bayrami kuni Malika odadagidan barvaqt uyg'ondi. Hovlisidagi gulzordan xushbo'y, iforli, qip-qizil atirgullarni saralab, ulardan chiroliy guldasta yasadi. So'ngra, atayin ustozga atab yasagan tabriknomasini olib, qadrondan maktabi tomon oshiqdi. Yo'lda dugonasi Nargizani uchratib goldi.

- Salom, Malika, ustozga qanday sovg'a olding? - so'radi undan dugonasi.

- Men oyijonim olib bergen juda qimmat atirni sovg'a qilmoqchiman.

- Men esa o'z qo'shimcha bilan yozgan tabriknomamni hamda mana bu gullarni sovg'a qilaman, - dedi Malika uchqog'idagi guldastaga ishora qilib.

Shunda Nargiza dugonasiga yalt etib qarab, hayratnomuz ohangda dedi:

- Voy, ustozga hurmating atigi bir parcha qog'ozmi, gullaring ham oddiyku, bozordagi qimmatbaho gullar emas...

Malikaning ustidan bir chelak muzdek suv quyilgandek bo'ldi.

Dugonasinining o'ylamay aytgan

so'zlaridan qattiq ranjisida, sinfga jilmayib kirib bordi.

Ana ustoz ham sinfga har kungidan go'zal bo'lib kirib keldi. Barcha o'quvchilar uni birma-bir tabriklab, sovg'alarini topshirishdi. Shu payt Nargiza o'midan turib:

- Ustoz, kimning sovg'asi sizga ko'proq yoqdi? - deb so'radi.

Ustoz barcha sovg'alarga bir-bir qarab chiqdi-da:

- To'g'risini aytasam, menga mana bu tabriknoma juda ma'qul bo'ldi, chunki unda dunyodagi eng qimmatli, samimiy so'zlar yozilgan ekan, - dedi jilmayib...

Shunda Nargiza dugonasiga aytgan so'zlaridan uyalib, o'ziga tegishli xulosa chiqarib oldi: demak, inson uchun qimmatbaho sovg'alar emas, yurakdan chiqqan samimiy so'zlar qadrliroq ekan-da.

Umida AKROMOVA,  
Toshkent viloyati, Chirchiq  
shahridagi 26-maktabning  
9-«B» sinf o'quvchisi



# VATAN HAQIDA SO'Z

Tahririyatimizga  
kirib kelgan  
mulkisimiz o'zini  
Munojat Usmonova  
deb tanishtirdi. U  
Jizzax viloyati,  
Forish tumanidagi  
Haydar ota  
qishlog 'ida  
joylashgan 37-umum-  
ta'lim maktabi  
o'quvchisi ekan.

## O'XSHATAMAN MUNIS ONAMGA



Munojat «Tong yulduzi»ning har bir sonini maroq bilan o'qib borishini, ayniqsa, unga «Vatan haqida so'z», «Ijod zavqi», «Bizga maktub yo'llabsiz» kabi ruknlar juda ma'qul bo'layotganini keltirdi. Uning samimiy fikrlaridan biz ham mammun bo'ldik va Vatan haqidagi fikrlarini yozib oldik.

*Seni o'xshataman munis onamga,  
U doim mehr-la boqar ko'zimga, deya o'zi  
yozgan she'rini ifodal o'qiy boshladi Munojat.  
– Men Vatan deganda, kindik qonim to'kilgan*

zaminni, ilk bor ko'z ochib ko'rgan go'shani, oyog 'im ostidagi zar tuproqni, musaffo osmonni, betakror tabiatni tushunaman va bularning barchasini muqaddas deb bilaman. Otamdek, onamdek e'zozlayman, ardoqlayman.

Orzularim juda mo'l. Ularning ijobati uchun bor bilimim, kuch-g'ayratimni ishga solaman. Qay biri amalga oshadi, buni vaqt ko'rsatadi. Ammo shuni ishonch bilan ayta olamanki, men kelgusida Vatanim, ota-onam koriga yaraydigan, ularni qadrlaydigan inson bo'laman.

**Tengdoshingiz Munojatning fikrlarini diqqat bilan tinglar ekanman, uning qat'iyatlighiga havas qildim va xayolimdan «Ishonch – eng katta yutuq», degan o'y kechdi.**

Feruza SOYIBJON qizi

Iqtidorli tengdoshim



*Qadrli o'quvchilar, gazetamizda «Iqtidorli tengdoshim» nomli yangi rukn tashkil qilingandan buyon tahririyatimizga sizlardan kelayotgan maktublar soni sezilarli darajada ortdi, desak ishonavering. Uni hatto ustozlariningiz ham katta qiziqish bilan kuzatib borishayotgani haqida yozishyapti.*

«Bu ibratlari rukningiz o'quvchilarimizni yangi yangi yutuqlar, marralar sari ilhomlantiryapti. Undan munosib o'rin olish uchun puxta bilim olish bilan birga san'at, sport sohasida ham o'z iqtidorlarini namoyon etishga, hunar o'rganishga intilishyapti», deb yozibdi o'z maktubida poytaxtimizdagi 81-maktab o'qituvchisi Shoirra Yusupova.

Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi 34-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi Saidbahodir Olimjonovning shu maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi To'lqinjon Hafizov haqida yozib yuborgan iliq fikrlari bizni to'lqinlantirib yubordi.

– Iqtidorli tengdoshim To'lqinjonni negadir boychechakka o'xshataman, – deb yozibdi

u o'z maktubida. – Ilk bahorda qorlar orasidan yorib chiqib, quyoshga talpinadigan boy-chechakka. Uning «Yoz gashti» nomli ilk she'ri 3-sinfda o'qiyotganida «Bilim dunyosi» gazetasida chop etilgandi.

Bobosi – ko'plab she'rlarga muxammalslar bog'lagan, naziralar bitgan taniqli ijodkor Sa'dullo Asrorga havas qilib, she'riyat olamiga kirib kelayotgan yosh qalamkashning she'rlerida Vatan, ona, tinchlik, do'stlik, tabiat kabi mavzular tarannum etiladi. Ijod namunalari «Kitob tongi», «Bilim dunyosi», «Tong yulduzi» nomli

«Yurt ozod, turmush obod» insholar tanloviga

«Obod» va «Ozod». Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, bu so'zlar xuddi egizakdek. Men tug'ilib, kamol topayotgan O'zbekiston ayan shunday diyor! Zero, ozod yurtdagina turmush obod bo'ladi.

## KOMIL FARZANDLAR – YURTGA YARASHAR



jamiyatimiz ravnaqiga qanday hissa qo'shsam bo'ladi, deya ko'p o'ylanaman. Shunday o'ylar meni tuman «Kamolot» YOIH tashkilotiga yetakladi, men sardorlar Kengashi raisi etib tayinlandim.

Tengdoshlarim bilan birlaslikda tumanimizda yashaydigan Ikkinchiji jahon urushi qatnashchilar, faxriyalar hamda yordama muhtoj bolalar holidan xabar olyapmiz. Bilim maskanlarida esa «Sport bizning hayotimizda» nomli sport musobaqaları, «Qo'lni qo'lga beraylik, do'star!» shiori ostida rasmlar tanlovlari o'tkazypmiz.

Yaqinda «Hasharga marhamat!» shiori ostida o'tkazilgan tadbirimizda bolalar yashayotgan ko'chalari, tahsil olayotgan maktablari atrofini tozalab, obod qilishdi.

«Obod turmush yili»da qilgan ibratlari ishlarmidan biroz ko'nglim to'lsa-da, hamon izlanishdaman.

Aziz tengdoshim, Siz-chi, mazkur yilda qanday ishlarni amalga oshirdingiz? Agar qilgan ishlaringizdan ko'nglingiz to'limgan bo'lsa, unda harakat qiling. Shu yurting munosib farzandi ekanligingizni isbotlashga intiling.

Sultonbek ZIYAYEV,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
Qonliko'l tumanidagi  
7-umumta'lim maktabining  
9-«A» sinf o'quvchisi

gazeta va jurnallarda tez-tez chop etiladi. «Nihol» nomli she'riy to'plami nashrdan chiqqan. «Yangi avlod – 2012» bolalar ijodiyoti festivalining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida 1-o'ringa sazovor bo'ldim, «Kelajak ovozi – 2013» tanlovida ishtirok etdim, Qoraqalpog'iston Respublikasi bolalar va o'smirlar nashri – «Jetkinshek» gazetasida chop etilgan ko'plab maqola, xabar va lavhalarim uchun «2012-yilning eng faol muxbiri» nominatsiyasi g'olib bo'ldim.

Shuningdek, yurtim farovonligiga,

## TABIAT

*Saxiy ona tabiat,  
Ko'rkam bog'u dalasi.  
Ko'rsatar bizga himmat,  
Tuprog'in har zarrasi.*

*Jismimga orom berar,  
Sof, musaffo havosi.  
Dilginanga xush yogar,  
Qushlarning kuy, navosi.*

*Gul, chamanzor hammayoq,  
Kundan kunga yashnaydi.  
Atrofingga to'yib boq,  
Qirda toychoq kishnaydi.*

*Suv tomchisi bebabho,  
Ko'katlar dardga davoy.  
Seni qilamiz hurmat  
Yashna, Ona tabiat!*

To'lqinjon HAFIZOV

YULDUZXON



*She'rnii, ko'ngil ishi, deyishadi. Ko'ngil borliqning betakror ranglaridan orom olsa, she'r yozihsiga kirishamiz. Bahorda qiyq'os ochilgan gullardan bol yig'ib yurgan asalarilar yanglig' so'z izlashga tushgan bo'lsak, kurga kelib daraxtlarning zarhal yaproqlariga tikilib, ich-ichimizdan to'kilgimiz keladi.*

Ijod olamiga endi qadam qo'yib kelayotgan yoshlarimizning ijod namunalarini o'qib, bolalikning beg'ubor olamiga qaytgandek bo'lamiz. Borliqni bola nigohi bilan ko'rib, his qilish qanchalik zavqli ekanini bilgan sari ko'nglimiz yorishadi. Keling, yurtimizning turli go'shalaridan yog'ilib kelayotgan tengdosh-laringizning dilnomalari bilan tanishaylik:

Toshkent shahar, Chilon-zor tumanidagi 182-maktabning 8-sinf o'quvchisi Abdulaziz ERGASHEV «Toshkent» nomli she'rida shunday yozadi:

*Sha'ningga she'r bitish  
men uchun faxr,  
Ta'rifingga sifat  
axtargum dildan.  
Bu zaminda yashash  
eng go'zal taqdir,  
Toshkentim, o'zingni  
sevaman chindan.*

*Kechalaring kunduzdek charog'on,  
Ko'rgan ko'z quvnaydi, porlaydi.  
Ko'chalar sarishsa, farovon,  
Sayr etsang, yuraging yuraydi...*

Abdulaziz Toshkentimiz ta'rifini yorqin ranglarda shunday ifoda etganki, uning go'zalligi bo'y-basti bilan ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi, go'yo.

Xuddi shunday go'zal misralarni Chirchiq shahridagi 26-maktab o'quvchisi Dilnavoz NAJIMOVAning «Omonning sayyorasi» nomli she'rida ham o'qish mumkin.

*Muallim savol berdi  
Xayolparast Omonga:  
- Bo'lsa uchar gilaming,  
Ucharing qay tomonga?  
- Osmonda do'stlik degan,  
Sayyora kashf etardim.  
Barcha yoru do'stlnari  
Unga olib ketardim...*

She'rnii o'qib, beixtiyor Omon-boyning ko'kda kashf etgan sayyorasiga chiqqimiz keladi.

Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanasi, «Yangiobod» mahallasidan maktub yo'llagan Sadoqat ERGASHEVA «Charaqlaydi tunda yulduzim» nomli she'rida:

*Termilaman osmon qa'riga,  
Oymomaga tutaman yuzim.  
Savol bisyor, sukut bariga,  
Charaqlaydi tunda yulduzim.*

*Nigohimda asta chekinish,  
Bekinmachoq o'ynaydi osmon.  
To'xtang, to'xtang,  
ketmang, yulduzlar,  
Ketayapsiz aytinq qay tomon?*



## DILDA KURTAK YOZGAN SATRLAR

Sadoqatning tungi o'yłarı o'quvchini ham yulduzlar harakatini, osmonning holatini kuzatishga undaydi. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi 2-akademik litseyining 3-bosqich o'quvchisi Yulduz MO'MINOVAning «Tong otmoqda» she'rida:

*Bulutlarni oralab,  
Quyosh quvnoq mo'ralab,  
Yulduzlarni saralab,  
Nurafshon tong otmoqda.*

*Gullar ham chiroy ochib,  
Xushbo'y iforlar sochib,  
Tunning qahridan qochib,  
O'zgacha tong otmoqda...*

Yulduzxon har bir yangi tong kishiga o'zgacha kayfiyat bag'ishlashini go'zal tarzda ifoda etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Taxiatosh shahri, Ishimboy ko'chasidan Dilafro'z AYTAYEVA «Bolalik» she'rida:

*Menden kechding beg'ubor  
xotiralarini tashlab,  
Erkalading arazdan munchoq  
ko'zimni yoshlab,  
Sen-la o'tdi kunlarim shodlik,  
quvonchini boshlab,*

*Bir zumgina ortingga  
qaytmaysanmi, bolalik?!*

*Yurakdagagi orzular yulduzlardan  
ko'p edi,  
Ezgu niyat ijobat, armon*

*sira yo'q edi,  
Ota-onha mehridan bebosh  
ko'nglim to'q edi,*

*Orzularing ro'yobin  
ko'rmaysanmu, bolalik?!*

Ko'nglini bolalikdan uzolmayotgan qalamkah qizimizning iltijolari bizni ham quvnoq bolalik olami sari yetaklaydi.

Toshkent shahar, Olmazor tumani, Sebzor mahallasidan Muslimabonu G'ANIYEVAning «Nur yog'ilar dalada» nomli she'rida:

*Yomg'ir yog'ar shivalab,  
Ko'z yoshin to'kar kuzuz.  
Jismim ketar jimirlab,  
Xazonlar yopar izim.*

*Shamol qo'shiq kuylaydi,  
Yomg'ir tingan pallada.  
Chaqmoq chaqib quvnaydi,  
Nur porlaydi dalada...*

Muslimabonuning kuz manzaralarini qiyosiy topilmalar, badiiy to'qimalar orqali tasvirlay olgani e'tiborlidir. Bunday shirali, quvnoq misralarni Farg'ona viloyati, Besharq tumanidagi 36-maktabning 9-sinf o'quvchisi

Madinabon u  
TO'LAGA-  
NOVAning  
«Nafisaning  
bahosi», «Kak-  
tus», Xorazm viloyati, Xiva

shahri, Najmiddin Kubro ko'chasidan Umidbek ISMOILOVAning «Vatan», Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidan Dilshodaxon MAMADALIYEVAning «Obod turmush muborab bo'lsin», Aviasozlar kasb-hunar kolleji o'quvchisi Oybek XUDOYBERDIYEVAning «Kitob mening o'rtog'im», Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi 42-maktabning 4-sinf o'quvchisi Sodiq TURSUNBOYEVning «Ustozim», «Yoz», Farg'ona viloyati, Buvayda tumani, Yangiyo'rg'on qishlog'idan Madinaxon UMAROVAning «Chumolilar qo'shig'i», Namangan viloyati, Yangiyo'rg'on tumanidagi 10-umumta'l'm maktabining 8-sinf o'quvchisi Behzod BILOLIDDINOVAning «Tinchlik», Jizzax viloyati, Zomin tumanidan Yorqinoy BERDIBEKOVAning «She'riyat», Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi 39-maktab o'quvchisi Mehrinigor TO'XTASINOVAning «Vatan» nomli she'rlarida ham uchratishimiz mumkin. Ularni har tomonlama yurakdan his etib, bitilgan rangin satrlar, desak xato qilmaymiz.

Ikkinchi toifadagi ijodkorlarimiz ijodida anchagina kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Ularning hali yana anche o'qib izlanishlari lozimligi sezildi. Keling, ulardan namunalar o'qiyimiz.

Surxondaryo viloyati, Sho'rchin tumanidagi 33-maktabning 6-sinf o'quvchisi Kumushbibi TOSH-MIRZAYEVA «Bug'doy va oltin» nomli she'rida shunday yozadi:

*Arpa, bug'doy osh ekan,  
Oltin, kumush tosh ekan.  
Oltin bilan bir joyga,  
Borsangiz ne qilasiz?*

**She'rlaringizni o'qib...**

*Masalan, bir sahroga,  
Borsangiz och qolasiz.  
Shunda bug'doy yeysizmi  
Yo oltinni deysizmi?*

Hammaga yaxshi tanish bu xalq maqoli satrlarga chatib bayon qilingan ushbu ohori to'kilgan «she'r»dan kishi hayratlanmaydi... Shuningdek, farg'onali Ma'sumaxon JALOLIDDI-NOVAning «Mening Vatanim», Sarvinoz MANSUROVAning «Halovatim - Vatan», A'lixon BEGMATOVAning «Singlim», «Obod turmush», «O'zbekiston - Vatanim mening», toshkentlik Ruxsora SHOKIRJONOVAning «Aziz maskan - Vatanim», jizzaxlik Odilbek IRISQULOVning «Qishlog'im», navoiylik Manzura ISMOILOVAning «Baxt bu ...», «Ona», samarqandlik Gulsara O'ROLOVAning «She'rlarim», «Mustaqillik», navoiylik Mahfuza PO'LATOVAning «Taqdirlimsan, baxtimsan, erkin va obod Vatan!», «Vatan mo'tabar», Zarina ASHUVANing «Sharq taronalari», surxondaryolik Xudoyqul RAHIMOVning «O'rgan ingliz tilini», farg'onali Gullolla RAHMONALIYEVAning «Bahorni unutmang», toshkentlik Laylo ZAYNIDDINOVAning «Olis yo'lga chiqqan ey uzun karvon» nomli «she'r»lari ham sayoz so'zlardan iborat jo'n satrlardir.

Afsuski, xorazmlik Bonu O G ' A B O Y E V A , samarqandlik Go'zallbonu ISLOMOVA, farg'onali Jannatxon O'RMON-JONOVA, Mohinur ABDUSAT-TOROVA, sirdaryolik Husan ISMOILOV, jizzaxlik Shoira QOBILOVA, Laylo XUBBIMOVA, navoiylik Ro'zana MASHARIPOVA, Mohinabonu TESHAYEVA, qash-qadaryolik Fayzoa ABDURAH-MONOVA, buxorolik Madina HAKIMOVA, toshkentlik O'g'iloy ISAJONOVA, Diyora O'RIN-BOYEVA, samarqandlik Lobar G'OZIYEVA ham hali «g'o'r», pishmagan so'zlar, fikrlar yig'indisini «she'r» deb tahririyatga yo'llashibdi.

**Ulug' adibimiz Muso  
Toshmuhammad o'g'li  
Oybekning shunday ibratlil  
pandi bor: «Fanda keng,  
tekis yo'l yo'q, faqat chag'ir  
toshli yo'llardan tirmashib  
chiqqan kishigina uning  
nurafshon cho'qqilariga yeta  
oladi».**

**Biz ham yosh ijodkor-  
larimizga nurafshon  
cho'qqilarini zabit etishlarida  
kuch-quvvat tilaymiz.**

AXTAMQULI



## ONAMGA

Bilimlar berdingiz biz o'g'il-qizga,  
Dilimda jo'sh urgan she'rلаримиз сизга,  
Har nafas tayormан xizmatингизга,  
Ko'zida muhabbat porlagan onam!  
Meni eзгүлүкка chorlagan onam!

Ushbu kun siзgadir qalbdagi tilak,  
Siз borsiz, bizlarga kular kelajak,  
Onajon, bu kun ayyom muborak,  
Mening iqbolimni ko'zlagan onam!  
Ilm-u ma'rifatdan so'zlagan onam!

Ko'zimdagи shoddik, quvonchim bo'lib,  
Dildosh mehribonim, suyanchim bo'lib,  
Har nafas diidagi ishonchim bo'lib,  
Kulib, boshginamini silagan onam!  
Faqat yaxshiliklar tilagan onam!

Umidaxon KARIMOVA,  
Toshkent shahar, Sergeli sanoat kasb-  
hunar kolleji 1-bosqich o'quvchisi

Qadim-qadim zamonda, el-u yurtlar omonda, Qoraqalpoq tomonda bir xon hukm surgan ekan. O'sha xonning oy desa oyday, kun desa kunday bir go'zal qizi bor ekan. Qiz ulg'ayib bo'yiga yetganida, chor tarafdan sovchilar yog 'ila boshlabdi. Ammo xon ularning barchasini noumid qaytaribdi.

Sovchilardan bezor bo'lgan xon bir kuni:

- Kimda kim yanglishmasdan yuzta lof gap aytса, qizimni o'shangaga beraman. Bordi-yu, aytolmasa, boshini tanasidan judo qilaman, – deya jar soldiribdi.

Chor tarafidan talay-talay xonlarning, vazirlarning, beklarning, boy-u badavlatlarning bulari kelib, yuzta yolg'oni qovushtirolmay boshlari tanalaridan judo bo'libdi.

Shu atrofda bir oddiy cho'pon yigit bor ekan. Xonning shartini eshitib, u ham kelidi:

- Xon hazratlari, men ham o'z baxtimi bir sinab ko'ray, deb keldim, – debdi u.

Shunda xon cho'ponga istehzo bilan kulib qarabdi-da:

- Mayli, aytqol, – debdi.

Cho'pon tutilmasdani gapira ketibdi:

- Hali tul onamdan tug'ilmay turib, bobomning yilqisini boqdim.

Shunda otam menga urg'ochi ola toyining qulog'iga en' solib berdi. Oradan yillar o'tdi, toyim kattakon ola biya bo'ldi. Kunlardan bir kuni biyam qorni ulkayib, yelinib yurganida, birdan yo'qolib qoldi. U yoqqa yugurdim, bu yoqqa yugurdim, hech qayerdan topolmadim. So'ngra, astoydil qidirishga bel bog'lab, bir katta tepalikning ustiga chiqib, chor atrofga razm soldim. Yo'q! Otimming ustiga qurug'imni sanchib qaradim. Yo'q! Qamchirning dastasiga pichog'imni sanchib, ustiga chiqib qaragan edim, osmondagi bulutlar ko'z oldimni to'sib qo'ydi. Men darhol qo'limdagi qurug'im bilan bulutlarni u yoq-bu yoqqa surib, ko'zlarimni yumib turib qarasam, kun bo'yib o'zlab topolmay yurgan biyam olti daryoning narayog'ida, besh daryoning bu yog'ida Oyga qarab qulunlab, Quyosha qarab o'tlab turgan ekan. Jonivor qulun biyaning bir u yoniga, bir bu yoniga sakrab irg'ishlaydi, deng. Darhol qinimmi qayiq, pichog'imni eshkak qilib daryoga tushgan edim, «shalop» etib cho'kdimu, ketdim. So'ng, qaytadan pichog'imni qayiq, qinimmi eshkak qildim-u, daryoning bu yog'iga zuv etib o'tib oldim.

Qulun jonivorni oldimga o'ngarib, biyaga minib daryoga tushgan edim, tag'in cho'kib ketsam bo'ladimi... Keyin qirg'oqqa qaytib chiqib, biyamni oldimga

## YURAGIMDA SO'NMAYDIGAN QO'SHIQ, VATAN!

U eski so'z, ko'zlarimda qarog' desam,  
Netay kundan kunga mehr qo'yaversam,  
Yuragini tutgay hatto yig'layversam,  
Onamdayin topinguvchi borim, Vatan,  
Jonlar ichra sig'inganim, jonim, Vatan!

Tug'ilgandan Vatan so'zin tinglaganman,  
Va ill bora, Vatan, seni anglaganman,  
To'rt fasling ham sochlarimga gul qadagan,  
Oftob sendan nur olarkan olov, Vatan,  
Otaginam boshidagi qirov,

Nurlar to'la kafilaringga dunyo sig'ar,  
Tonglaringda onajonim sigir sog'ar,  
Peshonangda har tun samo yulduz tug'ar,  
Qishlog'imda jivirlagan soyim, Vatan,  
Sunbul sochin yoyib turgan oyim, Vatan!

Mening alvon yuzlarimda gul yonadi,  
Vatan desam tog'-u toshlar bo'ylanadi,  
Beshigida necha alplar uyg'onadi,  
Ne daholar ulg'aygan bu – beshik, Vatan,  
Yuragini so'nmaydigan qo'shiq, Vatan!

Sadoqat ERGASHEVA,  
Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumani

## BUVIJON

Buvijonim, buvijon,  
Ko'zingit, misdi marjon.  
Juda sevaziz bizni,  
Nabira o'g'il-qizni.

O'rgatasiz oglobni,  
O'qi, deysiz, kitobni.  
So'zingizda bor ma'no,  
O'zingiz biram dono.

Xonardonlarga astun,  
Siz bor, bag'rimiz butun.  
Baxtimizga har qachon,  
Omon bo'sing, buvijon!

## BOLALAR

Quyosh suri – bolalar,  
Mehr qu'ri – bolalar.  
Bizni sevar analar,  
Hatto anuna, xolalar.

Bola ko'ngli beg'ubor,  
Qo'nmasisin unga g'ubor.  
O'qib, o'rgansak agar,  
Besh bo'lar qator-qator.

Mekkamtosh TOSHTEMIROVA,  
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi  
tumanidagi Cho'lpion nomli  
məktəbning 6-sinf o'quvchisi

o'ngarib, qulunimga mingan edim, jonivor, ko'z ochib yumgunimcha daryoning bu yog'iga olib o'tib qo'ysi.

Shunda xon cho'ponning gaplariga shubha qilib:  
– Tag'in daryo deyayotganing ko'lma suv bo'lmasisin, – debdi.

– Ko'lma miyo boshqa suvmi, bilmadim-u, ammo uning bu qirg'og'idan ertalab uchgan qush u qirg'og'iga kechqurun qanotlari tolib, zo'rg'a yetib boradi.

– Aytayotganing qush emas, endi qanot chiqarib kelayotgan palapon bo'lmasisin, – debdi xon.

– Xon hazratlari, qanaqa qilib palapon bo'lsin u? Qo'nalg'a-qoziqqa qo'ndirganimda, boshidagi to'mag'a-si to'qqiz qanotli o'tovning changarog'i dan tegapa chiqib turibdi.

– U aytayotganing to'qqiz qanotli o'tov emas, shunchaki bolalarning o'yinchog'i bo'lsa kerak, – deya e'tiroz bildiribdi xon.

– Yo'g'e, o'yinchoq emas, xon hazratlari, – debdi cho'pon xonni ishontirishga harakat qilib, – bo'sag'asida turib eshak hangrasa, to'rda o'tirganlar zo'rg'a eshitadi.

– U eshak emas, xo'tik bo'lsa kerak-ov.

– Iye, qanaqa qilib xo'tik bo'lsin, taqsir, – debdi cho'pon kulib, – tunov kuni qor yoqqanda, o'sha eshakka oltimish kishi mingashib quyon ovlagannamiz.

– E-e, eshak-peshaging bilan qo'shmozor bo'l, – debdi xon jahl qilib. – Boyagi biyangni oldingga o'ngarib, quluning bilan qayoccoq bording? O'shandan gapir.

– Ha, aytganday, qulunimga minib, biyamni oldimga o'ngarib daryordan o'tib kelayotsam, oldimdan bir quyon chiqib qolsa bo'ladimi? Darrov yoqamda sanchig'li turgan ninamni oldim-u, o'sha ninam bilan qulochkashlab bir urgan edim, umbaloq oshib tushdi. Endi buni pishirib, bir mazza qilib yey desam, uni pishirishga o'tin yo'q.

Muborak FOZILOVA tarjimasi  
(Davomi bor)

'en – belgi qo'yish

?qurug'im – ot tutadigan, uzun tayoq uchiga bog'langan tuzoq

?to'mag'a – qarchig'ay bilan burgut boshiga kiydirilgan charm g'ilof  
'changarog' – o'tovning tayoqlarini birlashtirib turadigan tepe qismi

# TAEKVANDOCHILARIMIZNING ULKAN G'ALABASI

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmuni o'tkazish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmogda.

Buning samarasi o'laroq, birlgina sport sohasida iqtidorli yosh sportchilarimiz ulkan yutuqlarni qo'liga kiritib kelmoqda. Ular dunyoning turli mamlakatlarda o'tkazilayotgan nufuzli xalqaro sport musobaqaqlarida yuksak natijalarga erishib, yurtimiz sharafini munosib himoya qilishayotir.

Jumladan, 5-6-oktabr kunlari AQSHning Nyu-York shahrida

1997-2006-yillarda tug'ilgan sportchilar o'rtaasida taekvandoning ITF yo'naliishi bo'yicha IX «Big Apple» xalqaro turnirida ham yosh sportchilarimiz yuqori natijalarini qo'liga kiritib, mahorat bobida dunyodagi tengdoshlaridan sira ham qolishmasliklarini namoyon etishdi. Dunyoning o'nga yaqin davlatidan



400 ga yaqin sportchilar ishtirok etgan musobaqada 8 nafar yosh taekvandochi bilan ishtirok etgan terma jamoamiz a'zolari 7 ta oltin, 5 ta kumush va 2 ta bronza medalni qo'iga kirdi.

Nufuzli musobaqada Kamronbek Tohirova va Ibrohim Zohidov yakkama-yakka bellashuvlarda Suhrobbek Nafullayev ikkinchi, Amirjon Abduraimov uchinchi o'ringa munosib ko'rildi. Musobaqa yakunlariga ko'ra, 14 ta medalni qo'iga kiritgan O'zbekiston termasi umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi. Ikkinchi va uchinchi o'rin AQSH va Puerto-Riko mamlakatlari sportchilariga nasib etdi.

**Shahobiddin ORTIQOV**

## SPORT CHEGARA BILMAYDI

O'zbekiston Milliy paralimpiya assotsiatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi va Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash fondi tomonidan paralimpiya harakatini rivojlantirish, Paralimpiya o'ynlari dasturiga kiritilgan jamoaviy sport turlarini yanada ommalashtirish maqsadida futbol bo'yicha tashkil etilgan musobaqada maxsus internat tarbiyalanuvchilaridan iborat jamaolar ishtirok etdi.

Bugungi kunda yurtimiz paralimpiyachilari jahon va qit'a championatlarda, Paraosyo va Paralimpiya o'ynlari muvaffaqiyetini ishtirok etib kelmoqda. «5x5» - ko'zi ojizlar futbol ham Paralimpiya o'ynlari dasturiga kiritilgan. Sportning ushbu turi bo'yicha yurtimizda championat va musobaqalar muntazam tashkil etilmoqda.

Poytaxtimizdagi 43-bolalar va o'smirlar sport maktabida tashkil etilgan musobaqaq iqtidorli yoshlarni saralash va terma jamaoni shakllantirishga xizmat qiladi. Unda Andijon maxsus internat jamaosi birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, ikkinchi va uchinchi o'rinalar Toshkent shahridagi maxsus internating ikki jamaosiga nasib etdi.

Ayni paytda Navoiy viloyatida 6-18 yoshdagagi 163 ming nafarga yaqin bola sport bilan muntazam shug'ullanmoqda.

## JISMONIY MADANIYAT VA SALOMATLIK

Violyatda zamonaviy sport inshootlari bunyod etish mavjudlarini qayta ta'mirlash va zarur sport anjomlari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilyapti. Istiqlol yillarida violyatda 76 ta sport majmuasi qurildi, mavjudlari qayta ta'mirlandi. Ayniqsa, ta'lif muassasalarini va qishloq joylarda barpo etilayotgan sport majmualari faoliyatidan aholi mammun.

Sportni ommalashtirishning yosh avlod salomatligiga ta'siri, oilardagi jismoniy madaniyatni yuksaltirishning ahamiyati xususida olib borilayotgan targ'ibot ishlari o'z samarasini bermoqda. O'tkazilayotgan salomatlik haftaliklarida mutaxassislar tomonidan berilayotgan tavsiyalar bemor va kamquvvat bolalar salomatligini tiklashda qo'l kelmoqda.



Mutaxassislarning ta'kidlashicha, qaysi oilada jismoniy madaniyat yaxshi shakllangan bo'lsa, o'sha oilada farzand ham sportga ishtiyoqmand, fikrlash doirasi keng, sog'lom va irodasi mustahkam bo'lib ulg'ayadi.

So'nggi 3-4 yillik o'rganishlar natijasida suv sport bilan shug'ullanuvchi bolalarda tana-muskul og'irligi ortishi va ko'krak qafasi aylanasi kengayishi kuzatildi. Sportning qaysi turi bilan shug'ullanishdan qat'iy nazar, inson organizmida qon aylanishi yaxshilanib, miyaning kislorod bilan ta'minlanish darajasi barqaror bo'ladi. Bu, o'z navbatida, miya faoliigini oshirib, ma'lumotlarni tez o'lashtirish va ilg'ab olish imkonini beradi. Qomat tik bo'lib, umurtqa pog'onasi nuqsonisz rivojlanadi.

**Shoh MUHAMMAD**

Poytaxtimizdagi 283-umumta 'lim maktabida ta'lif-tarbiya olayotgan 1130 nafar o'quvchining aksariyati bo'sh vaqtlarida sportning ko'plab turlari bilan shug'ullanib kelmoqdalar.

Bu maskandagi 300 ga yaqin o'quvchilarni jalb etgan futbol, voleybol, basketbol, qo'l to'pi, kikboksing, yunon-rum kurashi kabi sport to'garaklarining faoliyatidan nafaqat bolajonlar, balki ularning ota-onalari ham mammun bo'lishyapti. Tajribali murabbiylar o'quvchi-yoshlarga sportning sir-asrorlaridan saboq berishmoqda.

Maktabda turli musobaqalarda qatnashib, murabbiylari ishonchini munosib oqlab kelayotgan iste'dodli yoshlar ko'plab topiladi.

- Yurtimizda bolalar sportiga ko'rsatilayotgan alohida e'tiborning samarasi o'laroq o'quvchilarimizning bir qanchasi respublika va xalqaro turnirlarda g'olib va sovrindor bo'lib kelishayotganini ta'kidlab o'tish joiz. Har kuni ikki soatdan mashg'ulot olib boriladigan yunon-rum kurashi to'garagida umidli sportchilarimiz talaygina. G'iyos Muhammadjonov 2012-yil shahar ochiq birinchiligi va shahar kubogida birinchi, mazkur yilda Samarqandda tashkil etilgan respublika ochiq birinchiligidagi 35 kg. vazn toifasida shohsupaneng eng yuqori pog'onasidan joy egalladi. Zohid Ahadov turman, uning do'sti Hujaykar Husniddinov shahar birinchiligidagi oltin medal, 2012-yil Samarqand shahridagi xalqaro turnirida kumush medal sohibi bo'ldi. Quvonchbek Lutfullayev kikboksing bo'yicha shahar birinchiligidagi kumush, Shuhrat Eshturniyev turon yakkakurashi bo'yicha 2012-yil Xorazmda bo'lib o'tgan respublika championatida bronza, 2013-yil shahar championatida oltin medal sohibiga aylandi, - deydi maktab rahbari

## CHEMPTIONLAR MASKANI

Nodira Qambarova faxr va iftixor bilan.

Bunday yuqori natijalarga erishishda bir necha yillardan buyon mazkur dargohda faoliyat ko'rsatilayotgan tajribali murabbiylar – Furqat Mardiyev va O'ktam Pirnazarovning xizmatlari tahsinga loyiq. F. Mardiyev boshchilik qilayotgan yunon-rum kurashi to'garagida 20 ga yaqin, O'. Pirnazarov boshchiligidagi kikboksing to'garagida esa 10 dan ziyod o'quvchi-yoshlar darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazmoqdalar.

- O'quvchilik yillarimizda biror-bir sport to'garagini topish amri mahol edi. Boriyam shaharning bir chekkasida, zax joylarda bo'ldi. Hozir esa har bir maktab qoshida o'nlab to'garaklar faoliyatiga guvoh bo'lish mumkin, - deydi G'iyos Muhammadjonovning otasi G'ayrat aka.

- Farzandlarimiz mana shunday imkoniyatlardan, yaratilgan shart-sharoitlardan oqilona foydalanişlari, ularning qadriga yetishlari, albatta, bularning hammasi o'z-o'zidan bo'lganiganini teran his etishlari lozim.

Yoshlarimizning puxta bilim olish bilan birgalikda bo'sh vaqtlarini sport bilan shug'ullanib, mazmuni o'tkazayotganliklarni, aqlan yetuk, jismonan sog'lom va baquvvat bo'lib kamol topayotganini ko'rib, kelajakda jahon arenalarida champion bo'lishlariga umid qilib qolamiz.

**Umid OMONOV**





# O'XSHATMA ERTAK



Uzoq o'tgan zamonda,  
Hech kim bilmas tomonda,  
Bog'i Eram bo'larkan,  
Unda gullar kularkan.

Odamlarning singari,  
Ularda ham ilgari,  
Yaxshi-yomon bo'larkan,  
Buni hamma bilarkan.

Bir gul bor ekan oppoq,  
Ko'ngli ham yuzidek oq.  
Doim kulib turarkan,  
Baxt ulashib yurarkan.

Barchani teng ko'rarkan,  
Hol-ahvolin so'rarkan.  
Qo'lidan kelsa yordam,  
Berarkan dushmanga ham.

Bir sariq gul bor ekan,  
Ichi juda tor ekan.  
Ko'rolmaskan oq gulni,  
Payt poylab yurib uni.  
Ko'zlarini yopibdi,  
Mayda-mayda chopibdi.  
Oq gul yomon yig'labdi,  
Yurak bag'rin tig'labdi.


Bag'riga olib ulni,  
Suv tanasiz bu gulni.  
Barglarini teribdi,  
Bor mehrini beribdi.

Endi suv quchog'ida,  
Barglari ardog'ida.  
Oq gul manguga qoldi,  
Nilufar deb nom oldi.

\*\*\*

Har tong bulbul kelib xonish qilarmish,  
Hovuz atrofida qizlar kularmish.  
Nilufarning oydekk yuzini ko'rib,  
Sariq gul hasaddan yonib, kuyarmish.

**Dildora BOTIROVA,**  
*poytaxtimizdag'i 129-umumta'lim  
mataabining 9-«V» sinf o'quvchisi*



*Tasviriy san'atga oshufta dillar  
borki, borliqqa o'rgacha nigoj bilan  
boqib, atrofdagi voqe'a-hodisalarni  
ziyaraklik bilan idrok etadilar.  
Tabiatning biz ilg'amagan  
qirralarini ranglar boyligidan,  
uyg'unligidan unumli  
foydalangan holda o'z  
asarlarida aks  
ettirishga urinadilar.  
Musavovlarning ijodiy  
izlanishlari mahsuli bo'lmish  
asarlari tomoshabinlarni fikrashga,  
mushohada yuritishga  
undaydi. Tasviriy san'atning sirlari olami o'ziga maftun etadi.*

Poytaxtimizdag'i 258-maktabning  
5-«V» sinf o'quvchisi Mohinur  
Mirzayevaning akvarel, guash bo'yqlari  
yordamida yaratgan kompozitsiyalarini,  
chizgan rasmilarini shunchaki tomosha qilib  
bo'lmaydi. Ularda aks etgan tasvirlar,  
jonzotlar-u tabiat manzaralari go'yoki  
tirkdek, harakatlanayotgandek, nafas  
olayotgandek, tillashayotgandek taassurot  
qoldiradi va ularga uzoq termilib  
qolganagini sezmay ham qolasiz.

Xalqimizning «Bo'lar bola  
boshidan...» degan dono hikmati  
Mohinur singari yosh iqtidor egalariga  
nisbatan aytilgan bo'lsa, ajab emas.  
O'zidagi iste'dod uchqunlarini tasviriy  
san'at to'garaklarida alangalatishga  
intilayotgan qizimizning tahririyatga  
yo'llagan ijodiy ishlarni «Rasmalar  
ko'rgazmasi» orqali e'tiboringizga  
havola qilyapmiz. Baho berish Sizdan,  
aziz o'quvchilar.

8

Bosh muharrir  
Feruza JALILOVA

## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy  
Kengash,  
«SOG-LOM AYLOD UCHUN» hukumatiga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'an'i XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtaza SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinnbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi  
muharrir  
Sayyora  
QODIROVA  
Rassom  
Feruz  
MATYOQUBOV  
Dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV  
Musahih  
Nargiza  
ABDULLAYEVA

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-by.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
[info@tongyulduzi.uz](mailto:info@tongyulduzi.uz)  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Tel: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualiflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi: Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 46871  
Buyurtma N: J 8268

# NA'MATAKNING DO'LANAGA DEGANI

Qatra

Kunlarning birida Na'mata Do'lanaga:

– E, Do'lanajon, avvallari bog'larda, adirlarda  
o'sar edik. Odamlardan qochib, toqqa keldik.  
Baribir bo'lmadi, shu yerdan ham terib olib  
ketishyapti, – debdi.

Unga Do'lana kulib:

– Na'matakjon, juda ajoyibsan-  
a, toqqa quvvat olish, odamlarga  
darmon bo'lish uchun  
chiqqanmiz-da. Bizning  
vazifamiz ham shu! Shaharda  
o'sganimizda, bizni yovvoyi  
o'tdek chopib tashlashardi.  
Insonlarga kerakli bo'lib  
yashashga nima yetsin?! – debdi.



Dilnavoz NAJIMOVA,  
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi 26-maktab o'quvchisi

# TOPISHMOQLAR



Mafstuna JAMSHID qizi tayyorladi

14-oktoabr 2013



Bosh muharrir  
Feruza JALILOVA

## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy  
Kengash,  
«SOG-LOM AYLOD UCHUN» hukumatiga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'an'i XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtaza SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinnbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi  
muharrir  
Sayyora  
QODIROVA  
Rassom  
Feruz  
MATYOQUBOV  
Dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV  
Musahih  
Nargiza  
ABDULLAYEVA

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-by.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
[info@tongyulduzi.uz](mailto:info@tongyulduzi.uz)  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Tel: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10